

ЎЗБЕК ХАЛҚ МУСИҚАСИ АСОСИДА ЎҚУВЧИЛАРНИ МАЪНАВИЙ – АХЛОҚИЙ ФАЗИЛАТЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ АҲАМИЯТИ.

Абдурасулов Баҳодир Сайдурасулович

*Гулистон Давлат Университети Ан'анави хонандлик ва cholg'у ijrochiligi
кафедраси катта ўқитувчиси*

Аннотация: Ўзбек халқ мусиқаси, алломаларимизнинг ёш авлодларнинг маънавий –ахлоқий фазилатларини шакллантириши тўғрисидаги фикрлари илмий ўрганилган ва асосланган. Бууик Sharq allomalari Мухаммад ал-Хоразмий, Abu Nasr Farobiy, Ahmad al-Farg'oni, Abu Ali ibn Sino, Paxlavon Махмуд, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zaxriddin Muhammad Bobur, Abduraxmon Jomiy, Najmiddin Kavkabi, Darvish Ali Changiy o'zlarining musiqaga oid risolalarida ijrochilik san'ati, musiqqa ilmi va tarixi, cholg'у sozlarining tuzilishi, ijroviy uslublari, san'atkorlik qonun –qoidalariga oid qimmatli ma'lumotlarini bayon etganlar.

Калит сўзлар: *Одоб, ахлоқ, нафосат, меҳр-оқибат, ватанпарварлик, etnopsixologik, ijtimoiy, folklor-xavaskorlik, cholg'у sozlari, ijroviy uslublari, etirof, janr, siyosiy, iqtisodiy, Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh, Iroq*

ВАЖНОСТЬ ФОРМИРОВАНИЯ ДУХОВНО-ПРАВСТВЕННЫХ КАЧЕСТВ УЧАЩИХСЯ НА ОСНОВЕ УЗБЕКСКОЙ НАРОДНОЙ МУЗЫКИ.

Абдурасулов Баҳодир Сайдурасулович

*Гулистанский Государственный Университет Старший преподаватель
кафедры “Традиционные инструменты для пения и игры”*

Аннотация: *V uzbekskoy narodnoy muzyke nauchno izucheny i obosnovany mneniya nashikh uchonykh o formirovaniy dukhovno-nravstvennykh kachestv molodogo pokoleniya. Velikiye uchonyye Vostoka Mukhammad al'-Khorazmi, Abu Nasr Farabi, Akhmad al'-Fargani, Abu Ali ibn Sina, Pakhlavon Makhmud, Mirza Ulugbek, Alisher Navoi, Zakhriddin Mukhammad Babur, Abdurakhman Dzhami, Nadzhmuddin Kavkabi, Darvish Ali Changi. V svoikh traktatakh o muzyke oni predstavili tsennyye svedeniya ob ispolnitel'skom iskusstve, muzykal'noy nauke i istorii, stroyenii muzykal'nykh instrumentov, stilyakh ispolneniya, zakonakh i pravilakh artistizma.*

Ключевые слова: *Manery, moral', utonchennost', dobrota, patriotizm, etnopsikhologicheskiy, sotsial'nyy, narodno-fantaziynyy, muzykal'nyye instrumenty, stili ispolneniya, priznaniye, zhanrovyu, politicheskii, ekonomicheskii, Buzruk, Rost, Navo, Dugokh, Segokh, Irak*

THE IMPORTANCE OF THE FORMATION OF SPIRITUAL AND MORAL QUALITIES OF STUDENTS ON THE BASIS OF UZBEK FOLK MUSIC.

Abdurasulov Bahodir Saydurasulovich

Gulistan State University Head teacher Department of traditional singing and instrumental performance

Annotation: *Uzbek folk music, the opinions of our scholars on the formation of spiritual and moral qualities of young generations are scientifically studied and based. The great scholars of the East Muhammad al-Khorazmi, Abu Nasr Farabi, Ahmad al-Farghani, Abu Ali ibn Sina, Pakhlavon Mahmud, Mirza Ulug'bek, Alisher Navoi, Zahrudin Muhammad Babur, Abdurakhman Jami, Najmuddin Kavkabi, Darvish Ali Changi o' in their treatises on music, they presented valuable information about the art of performance, music science and history, the structure of musical instruments, performance styles, and the laws and rules of artistry.*

Keywords: *Manners, morals, refinement, kindness, patriotism, ethnopsychological, social, folk-fantasy, musical instruments, performance styles, recognition, genre, political, economic, Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh, Iraq*

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta'kidlaganidek; "Bir haqiqatni hech qachon esdan chiqarmasligimiz kerak, mamlakatimizda madaniyat va san'at taraqqiy etmasa jamiyat rivojlanmaydi. Xalqimizning rivojlanish darajasi, avvalo milliy madaniyatimizga qarab baholanadi. Shu ma'noda madaniyat bu-xalqimiz, jamiyatimiz qiyofasidir. Biz jonajon yurtimizning yangi qiyofasini yaratishga kirishgan ekanmiz buni, avvalo, milliy madaniyatimizni rivojlantirishdan boshlashimiz loziml". Buning uchun eng avvalo o'sib kelayotgan avlodni yuksak ma'naviy madaniyati va yuksak ahloqiy sifatlarga ega bo'lgan shaxsni tarbiyalash muammosi siyosiy, iqtisodiy, fuqarolik va ma'naviy-madaniy soxalarda islohatlar jadallik bilan amalga oshirilayotgan bugungi kunda ayniqsa muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonda ro'y berayotgan o'zgarishlar barcha sohalardagi kabi musiqa o'qituvchilarining zimmasiga ham katta vazifalar yuklaydi. Bugungi kunda umumta'lim maktablaridagi musiqa madaniyati fani zamonaviy shart-sharoitlarni ko'rib, murakkab taraqqiyot yo'lini bosib o'tayotgani etirof qilinmoqda. Musiqa san'ati estetik did, hissiyot-idrokning bitmas tuganmas manbaidir. Inson yuragini va aqlini zabt etuvchi maftunkor dunyodir. Shuning uchun inson doimo go'zallikka intilishi va kundalik hayotda shu go'zallik qoidalariga amal qilishi lozim. O'zbekistonda o'tkazilayotgan musiqiy an'analar, tadbirlar, mahalliy marosimlar o'zbek xalqining ijtimoiy, tarixiy rivojlanishi, etnopsixologik xususiyatlari, hayotiy tajribasi, ijtimoiy qarashlari shakllangan bo'lib, asrlar davomida avloddan - avlodga o'tib kelmoqda. Shu

tufayli o'quvchi–yoshlarda Vatanga muhabbat, mexr-oqibat, odob-axloq, ma'rifiy madaniy tarbiya kabi fazilatlar qaror topib boradi. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda mustaqillik yillarida ta'lim, xususan musiqa ta'limining rivojlantirishga qaratilgan muhim normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoev raisligida 2017-yil 25-dekabr kuni madaniyat va san'at sohasidagi dolzarb masalalar muhokamasiga bag'ishlangan yig'ilishidan.

Metodlar.

O'zbek xalqining musiqa madaniyati juda uzoq tarixga ega. Ikki daryo oralig'ida qadimdan shakllangan tamaddunning taraqqiyoti davomida xalq mumtoz musiqasi, an'anaviy kasbiy musiqa, xalq bastakorlik yo'llari, shuningdek, folklor-xavaskorlik musiqiy merosi singari shaklan va usluban bir-biriga yaqin ijrochilik ko'rinishlari bir-birini to'ldirgan xolda rivojlanib keldi. Ushbu musiqiy merosimiz bugungi kunda ham ma'naviy madaniyatimizning musiqiy sarchashmasi sifatida namyon bo'lmoqda. "Ma'lumki, buyuk Turon zaminida musiqa madaniyati va ijrochilik san'atining rivojlanishi tarixi qadim zamonlardan boshlangan.

Buyuk Sharq allomalari Muxammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Ahmad al-Farg'oniy, Abu Ali ibn Sino, Paxlavon Maxmud, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zaxriddin Muhammad Bobur, Abduraxmon Jomiy, Najmiddin Kavkabiy, Darvish Ali Changiy o'zlarining musiqaga oid risolalarida ijrochilik san'ati, musiqa ilmi va tarixi, cholg'u sozlarining tuzilishi, ijroviy uslublari, san'atkorlik qonun –qoidalariga oid qimmatli ma'lumotlarini bayon etganlar. Bu boy musiqiy merosning shakllanishi o'z navbatida mukammal ishlangan cholg'u asboblarning ixtiro etilishi va mukammallashtirish orqali yuz bergan.

Adabiyotshunos olim N.Mallaev o'zining "O'zbek adabiyoti tarixi" asarida o'lkamizda qadimgi zamonlarda musiqaning badiiy adabiyot bilan hamqadam holda rivoj topganini va X-XII asrlarda tanbur, rubob, qo'biz, zir, nay, chag'ona, shaypur, surnay, karnay, arounan, qonun kabi torli, zarbli va puflab chalinadigan cholg'u asboblari keng tarqalganini ko'rsatib o'tadi. Yurtimizning tarixiy shaxarlarida olib borilgan arxeologik qazilmalar natijasida topilgan dutor, surnay, qonun va nayga o'xshash sozlar, toshlarga o'yib bitilgan sozandalarning soz chalib turganidagi tasvirlari, miniatyura asarlardagi soxanda va hofizlarning rasmlari o'lkamizda ijrochilik san'ati qadimdan rivojlanib kelganligidan dalolat beradi. Sharq xalqlarining musiqiy merosi bo'lmish Maqom, Mo'g'om, Dastgoh, Navba, Raga, Kyui kabi ijrochilikning murakkab turkumlari avloddan avlodga og'zaki ravishda o'tib kelgan.

Tarixiy va ilmiy manbalarda keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda, XIII-XVII asrlarda O'rta Osiyo, Xuroson va Ozarboyjon xalqlari musiqasida quyidagi o'n ikki (Duvozdah) maqom mavjud bo'lgan. Bular "Ushshoq", "Navo", "Buzalik", "Rost", "Xusay-niy", "Hijoz", "Rohaviy", "Zangula", "Iroq", "Isfahon", "Zirof qand", "Buzruk". Maxmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida kadimgi turkiy

xalqlarning bayram va marosimlardagi mehnat qo'shiqlari, qaxramonlik qo'shiqlari haqida namunalari berilgan bo'lib, o'sha zamonda qo'shiqchilik janri rivoj topganini ko'rsatadi. X-XII asr musiqa va ashula san'atiga doir bayon etilgan noyob ma'lumotlar Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida ham uchraydi. "X-asrning buyuk qomusiy olimi, musiqashunoslik fanining ulug' kashfiyotchisi Abu Nasr al-Farobiy (873-950) o'z faoliyatida musiqa ilmini tadqiq etish bilan birga, fiziologik asoslarini tadqiq etish ustida ishladi va "qonun", "g'ijjak" kabi yangi musiqiy sozlarni kashf etdi.

Uning musiqiy soxasidagi nazariy asarlaridan "Kitab ul –musiqa al-kabir" (Katta musiqa kitobi), "Kalom fakultet-il musiqi" (Musiqa haqida so'z), "Kitob fi ixsoal ibkoh" (Kuylar tasnifi haqida kitob), "Kitob fi-n naqra muzofa ilal ibkoh" (Ritmga qo'shimcha qilinadigan siljishlar haqida kitob) kitoblari ma'lum. Ulug' olim Mirzo Ulug'bek Tarag'ayning "Risola dar ilmi musiqa" (Musiqa ilmi haqida risola) kitobining "Dar bayoni duvozdah maqom" (o'n ikki maqom zikrida) bobida shunday fikrlar keltiriladi; Xoja Abdulqodir ibn Abduraxmon Marog'iy, Xoja Sayfiddin Abdulmo'min, Sulton Uvays Jaloiriylarning so'zlariga qaraganda avvalda maqomlar ettita bo'lg'on: "Maqomi rost", "Maqomi ushshoq", "Maqomi navo", "Maqomi Roxox", "Maqomi hijoz", "Maqomi iroq", "Maqomiy Xusayniy".

Yana ushbu risolada Mirzo Ulug'bekning o'zi tanbur va nog'orani yaxshi chalganligini, "Bulujiy", "Shodiyona", "Axloqiy" "Tabriziy" "Usuli ravon", "Usuliy otlig'" singari kuylarni bastalaganligi ta'kidlab o'tadi. Temuriylar davrida musiqiy madaniyatimiz o'zgacha kamol topdi. Mirzo Ulug'bekdan keyin uning musiqa va musiqachilarga xomiyligini Xirotda Xusayn Boyqaro, Boysunqur Mirzo hamda ulug' shoir va mutafakkir Alisher Navoiy davom ettirdilar.

Ayniqsa, Alisher Navoiyning uyida tez-tez tashkil etilgan nazm va navo kechalari musiqa va qo'shiqchilarning basma-basiga o'z ijro maxoratlarini namoyish qilganliklarini tarixchilar Mirxond va Xondamirlar o'z asarlarida qayd etib o'tdilar". Bu nazm va navo kechalari o'z davrining musiqa festivali edi, albatta. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, turli tarixiy sharoitlarda musiqa va qo'shiqchilik yangi ijro yo'llarining sayqallangan ko'rinishlari bilan jilolanib ketgan. Keyinchalik xalqimiz tarixida yuz bergan diniy -etnik o'zgarishlar tufayli hamda insonlarning yashash sharoitlari, turmush tarzidagi o'zgarishlarga qarab har xil musiqa, qo'shiq, ijro va maqom yo'llari takomillasha borgan. Natijada, XVIII asrga kelib Buxoroning "Shashmaqom" (olti maqom) Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh, Iroq maqomlari o'zining nasr va mushkulot qismlari bilan rivojlangan bo'lsa, Farg'onaning "Chor maqomi" i (To'rt maqom) "Dugoh Husayniy" ning ettita yo'li, "Chorgoh" ning oltita ijrochilik yo'li, "Shaxnozi Gulyor" ning oltita ijrochilik yo'li hamda "Bayot" yo'llarining savti va taronalari bilan jilolanib, ijro etib kelingan.

Milliy musiqa madaniyatimizning ushbu murakkab tadrijiy yo'l orqali kamolga erishganini professor A. Fitrat o'zining "O'zbek musiqasi to'g'risida" nomli maqolasida quyidagi fikrlar bilan ifodalaydi. "... u shunday bir musiqaki, yolg'iz o'zining klassik

qismida uch yuzdan ortiq kuy saqlangan; bir musiqaki, bu kun u o'n beshga yaqin cholg'uning egasidir; bir musiqaki, uning tekshirishga loyiq nazariyasi, usuli bor; uni maxtaganlar to'g'ri so'zlaydilar".

Mamlakatimiz ahli endilikda tamomila yangicha jamiyat, yangicha turmishda yashayapti. Odamlarimiz qalbi, tafakkuri va tasavvurida o'zgarishlar paydo bo'ldi. Istiqlol tufayli milliy madaniyatimiz va san'atimizni dunyoga ko'rsatish, targ'ib qilish imkoniyati tug'ildi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti tashabbusi bilan 1997-yildan buyon har ikki yilda o'tkazib kelinayotgan "Sharq taronalari" xalqaro festivali milliy musiqa va qo'shiqchilik san'atining noyob namunalarini keng targ'ib qilish, azaliy an'analarni asrab-avaylash hamda rivojlantirish, yosh avlod qalbida san'atga mehr-muhabbat tuyg'ularini kamol toptirish, go'zallikni, chin insoniy qadriyatlarni tarannum etish, xalqlar o'rtasidagi do'stlik, birodarlik rishtalarini yanada mustahkamlash kabi ezgu maqsadlarga xizmat qilmoqda. Milliy uyg'onish davri deb tan olinayotgan bugungi kunimiz mustaqil O'zbekiston tarixida yangi davrni boshlab berdi.

Qisqa davr ichida mamlakatimizda davlat va jamiyat qurilishining mutlaqo yangi siyosiy asoslari yaratilishi bilan birgalikda ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy sohalar rivojlanishining ustivor yo'nalishlari belgilab berildi. Ana shunday uyg'onish davri O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov mustaqillik biln bog'liq barcha ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy masalalar qatorida inson, ayniqsa, yosh avlod ma'naviyatini, erkin, ozod shaxs ma'rifatiga, madaniyat va san'atning rivojiga alohida e'tibor berdi.

Zotan, ma'naviy madaniyatsiz va san'atsiz milliy qadriyatlarni yanada yuqori bosqichga ko'tarmasdan turib, yangi jamiyatni, yangi ijtimoiy-tarixiy munosabatlarni va yangi dunyoqarashni barpo etish mumkin emasligi ayon bo'ldi. O'zbekistonda yangi ma'naviy yo'nalishlarining shakllanishi o'z navbatida pedagogikaning, san'atning barcha sohalariga samarali ta'sir etib, ijodiy izlanishlar doirasini kengaytirib, badiiy tafakkur rivojini jadallashtirmoqda.

Tarixiy, madaniy, ma'naviy-ahloqiy qadriyatlarning keng qatlamlarini qayta idrok etish san'atning barcha sohalarida bo'lganidek musiqiy san'atda ham yaqqol namoyon bo'lmoqda. Milliy tafakkurdagi tub yangilanishlar ma'naviyatimizning asosiy o'zagi bo'lishi va uni ijtimoiy ongining bugungi darajasiga muvofiq yangi talablar asosida baholash zaruriyatini taqoza etmoqda.

Biz o'z tadqiqotimizda yuqoridagi fikrlarga yondoshgan holda umumta'lim maktablari o'quvchilarida umummadaniyatning musiqa bilan bog'liq jihatlarini, tushuncha va mohiyatini, musiqaning ta'sirchanlik xususiyatlarini kengroq yoritishga xarakat qildik .Zero, bugungi kunda o'quvchi – yoshlarning ma'naviy tarbiyasida musiqaning o'rni alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Texnikaviy rivoj bosimida jadallashib borayotgan va o'z ta'sirini o'tkazayotgan musiqaviy taraqqiyot oqimining yoshlarga ta'siri o'z kuchini ko'rsatmoqda. Shu sababli

asrlar bo'yi ota-onalarimizdan bizgacha etib kelgan musiqiy madaniyatimizni asragan, an'anaviy qo'shiqchilik va milliy musiqa boyligimizda foydalangan holda umumta'lim maktablari o'quvchilarida madaniyatni shakllantirish bugungi kunning dolzarb vazifalari bo'lib kelmoqda. XX asrning 20-yillari davomida o'zbek xalq qo'shiqlari mazmunida asosan turmush sharoitlarini kuylash va ijrochilik mahoratlarini yana ham oshirishda iborat edi va bu qo'shiqlarning asosida o'zbek xalqining boy musiqa merosi turar edi. Bu meros qadimdan avloddan -avlodga og'zaki xolatda etib kelgan. O'zbek xalqining o'tmishi, turmush sharoitlari, qayg'u va alamlari, og'ir mehnat va ozodlik uchun kurashganliklari xalq musiqa san'atida o'z aksini topgan. Xalq qo'shiqlari serqirra bo'lib alla, bolalarga atab ijod qilingan qo'shiqlar, lirik, mexr va muhabbat, hazil va mutoiba, yil, fasllarga bag'ishlangan kabi musiqiy asarlar kuylangan.

Ko'p qirrali bu xalq musiqa merosini mavzular bo'yicha ikkita katta bo'limga bo'lish mumkin. Ulardan birinchisi -marosim, mehnat va boshqa turmush sharoitlar bilan bog'langan (Yor-yorlar, Yig'i-Sadrlar, Mayda, Yozi, Alla) bo'lib, ikkinchisi qo'shiqlar (ashulalar) dir. Bu qo'shiqlar biron-bir turmush sharoitlari bilan bog'liq bo'lmagan mazmundagi asarlar: laparlar, yallalar, ashulalardir. O'zbek xalq professional og'aziki musiqa merosida asosiy o'rinni maqomlar egallaydi. O'zbekistonda maqomlar mahalliy sharoitlarga ko'ra ikkiga bo'linadi.

Buxoro va Xorazm maqomlari. Lekin bu maqomlarning ba'zi bir qismlari Farg'ona vodiysida ham ijro etilib tarixlarda uchunchi Farg'ona –Toshkent yoki “Chormaqom” deb nomlangan. Professional musiqa ijrochilari va musiqa olimlari bu “Chormaqomni” alohida ajratish ma'qul emas deb ta'kidlab uni Buxoro maqomi bilan birlashtirganlar.

Maqomlar mazmuni asosan lirik bo'lib, ulardagi klassik she'rlar-Hofiz, Navoiy, Bedil, Bobir, Jomiy, Muqumiylarga mansubdir. Maqom musiqalarida xalq she'rlari ham ishlatiladi. O'zbek –tojik musiqa merosi Buxoro maqomi “Shashmaqom” deb olgankim, bular; Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh, Iroqdir. Har bir maqom ikki bo'limga cholg'u va ashula bo'limiga bo'linadi.

Cholg'u bo'limi –Mushkulot, ashula bo'limi –Nasr deb nomlanadi. Cholg'u bo'limi yana bir necha qismlarga –Tasnif, Tarje', Gardun, Muxammas va Soqillarga bo'linadi.

Ashula qismi esa Sarahbor, Talqin, Nasr, Qashqarcha, Soqiynoma, Uforgia bo'linadi. Maqom ijrosida asosiy musiqa asboblari tanbur va doira bo'lib, har qaysi maqomda tanbur alohida sozlanadi. Masalan; Buzruk, Dugoh, Segoh va Iroq maqomlarini ijro etishda soz kvartaga (O'rtancha tor bilan oxirgi tor oralig'i) sozlanadi. Rost maqomida soz kvintaga sozlanadi. Navo maqomida ijro etishda tanbur sekunda intervaliga sozlanadi.

Natija va munozaralar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarni ma'naviy yuksak, zamonaviy ilm-fanni egallashda, ajdodlarimizdan qolgan boy ma'naviy merosimizni asrab-avaylashda o'zbek xalq musiqasining roli beqiyos. Bunday yurtda voyaga etgan avlodning istiqboli porloq, kelajagi buyuk bo'lishi shak-shubhasizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekistonning yangi qiyofasini yaratishda milliy madaniyatimizning o'rni va ahamiyati O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev raisligida 2017-yil 25-dekabr kuni madaniyat va san'at sohasidagi dolzarb masalalar muhokamasiga bag'ishlangan yig'ilishi. Xalq so'zi. 2017 y.26-dekabr.

2. Musiqa ijodiyoti masalalari. Maqolalar to'plami. T. "Yangi asr avlodi." 2002-y 88-90 bet.

3. A. Fitrat. O'zbek musiqasi va uning tarixi T "Fan" nashriyoti 1993-y 52 bet.

4. P. Юнусов Истиклол мафкураси ва музикий жараён. Т-2002-й. 16-бет.

5. А. Фитрат. Ўзбек музикаси ва унинг тарихи Т "Фан" нашриёти 1993-й 52 бет.

6. И.А.Каримов. "Ўзбекистон XXI аср бўсағасида; ҳавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари" –Т Ўзбекистон 1999-й.56-70 бетлар

7. Ш.Рахимов, Ҳ.Нурматов. "Чолғу ижрочилиги тарихи" (Ўқув қўлланма) Т.2009 15-18 бет.